

# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**25 048**

109,1 %



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**23 816**

107,7 %



### Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yil yanvar oyida)


**292**

84,9 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fеврал holatiga ko'ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar oyida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - fevral xolatiga, birlikda)



# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,9** foizga oshdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,  
ovchilik va bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan 9,5 foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 218 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 10,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,6 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 35,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) o'sishi kuzatildi va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 95,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,5 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 94,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) tashkil etdi.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,3 foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



**3,5**  
foizga oshdi



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida



- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 410 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 2,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,7 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 23,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 10,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 0,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,6 %) tashkil etdi.

# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,3** foizga oshdi



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 6 379 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 12,2 % ga (jami savdodagi ulushi 70,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 13,1 % ga (jami savdodagi ulushi 21,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 11,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,2 %) o'sishidir.



■ Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**407**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

**27**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


**10**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,2 foizga oshdi**



**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**



**10,1**  
foizga oshdi



**Mikrofirmalar**



**Kichik korxonalar**



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

11



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,3** foizga oshdi



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



**6,2**  
foizga oshdi



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



**102**  
yashash bo'yicha xizmatlar




**1 264**  
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 366 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 5,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,5 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 15,9% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,5 %) o'sishidir.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

*(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)*



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 2 065 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 323 ga yoki 18,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 940 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 308 ga yoki 18,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 17 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41,5 % ni tashkil etdi.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 15 524 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 915 ga yoki 14,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 770 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 644 taga yoki 12,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 218 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85,1 % ni tashkil etgan.




# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra 175 tani tashkil etib, ulardan 174 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 9 ta yoki 5,4 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

# Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

15



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

16


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>174</b>	<b>108</b>	<b>66</b>
<b>tumanlar:</b>			
Amudaryo	5	1	4
Beruniy	10	5	5
Bo'zatov	6	6	
Qorao'zak	10	7	3
Kegeyli	7	6	1
Qo'ng'irot	9	7	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	36	25	11
Nukus	10	5	5
Taxiatosh	9	3	6
Taxtako'pir	3	2	1
To'rtko'l	6	5	1
Xo'jayli	3	1	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	4	2	2
Ellikqal'a	5	4	1
Nukus sh.	41	23	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 41 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,6 %), Mo'ynoq 36 ta (20,7 %), Beruniy, Qorao'zak va Nukus 10 ta (5,7%), Qo'ng'irot va Taxiatosh tumanlarida 9 ta (5,2 %), Kegeyli 7 ta (4,0%), Bo'zatov, Qonliko'l va To'rtko'l tumanlarida 6 ta (3,4 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

17



2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,3 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,3 %), Amudaryo (7,5 %), Ellikqal'a (6,1 %), Qo'ng'irot (5,7 %), Xo'jayli (5,3 %), Nukus (4,3 %), Chimboy (4,1 %), Taxiatosh va Kegeyli (3,2 %), Qorao'zak va Mo'ynoqda (2,8 %), Qonliko'l (2,7 %), Shumanay tumanlarida (2,6 %), Taxtako'pir (1,8 %) va Bo'zatov (1,5%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar oyida, birlikda)


2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (30,2 %), To'rtko'l (12,3 %), Beruniyda (8,6 %), Taxiatosh (8,2 %), Xo'jayli (5,5%), Ellikqal'a va Qo'ng'irot (5,1%), Amudaryo (4,8 %), Nukus (3,4 %), Chimboy (2,1 %), Mo'ynoqda (2,7 %), Kegeyli (2,4 %), Shumanay va Qorao'zak (3,1 %), Qonliko'l (1,4 %), Bo'zatov va Taxtako'pir (1,0 %) tumanlari ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

18



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,3 %), To'rtko'l (10,2 %), Beruniy (7,1 %), Amudaryo tumani (6,8 %), Xo'jayli (5,5 %), Qo'ng'irot (5,2 %), Nukus (5,1 %), Ellikqal'a (4,3 %), Chimboy (4,2 %), Kegeyli (3,4 %), Mo'ynoq (3,0 %), Qorao'zak (2,9 %), Taxiatosh tumani (2,5 %), Bo'zatov va Qonliko'l tumanlarida (1,8 %), Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,2%) tumanlari hissasiga tegishli.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

# Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: 61 224-92-09**